Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 373.3:796:159.947
ORCID: 0000-0001-5343-0539

TURDIMURATOV DILMURAD YULDASHEVICH
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: profboks2020@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola jismoniy tarbiya vositalari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ta'lim jarayoni sharoitida xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish, faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi hamda qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlar tahlili asosida iroda faoliyat va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanuvchi integrativ shaxsiy tuzilma sifatida yoritilgan.

Maqolada 2024-yilda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 7-son umumta'lim maktabi bazasida 4-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari keltirilgan. Tajriba ishlari qat'iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, o'zini nazorat qilish hamda intizomlilik kabi irodaviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus tashkil etilgan jismoniy tarbiya vositalari va metodlarini amaliyotga joriy etishga yo'naltirildi. Olingan natijalar tajriba guruhidagi o'quvchilarda irodaviy sifatlarning shakllanishida ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilganligini ko'rsatib, jismoniy tarbiyaning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsini rivojlantirishdagi samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

KALIT SO'ZLAR: *irodaviy sifatlar, iroda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, jismoniy tarbiya, o'z-o'zini boshqarish, ixtiyoriy xulq-atvor, pedagogik tajriba, jismoniy tarbiya darsi, shaxs rivojlanishi, faoliyat motivatsiyasi, psixologik-pedagogik mexanizmlar, boshlang'ich ta'lim.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ СРЕДСТВАМИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

АННОТАЦИЯ: Статья посвящена исследованию психолого-педагогических механизмов формирования волевых качеств у учащихся начальной школы средствами физического воспитания. Актуальность работы обусловлена необходимостью развития у младших школьников способности к саморегуляции поведения, целенаправленности деятельности и преодолению трудностей в условиях образовательного процесса. На основе анализа отечественных и зарубежных научных подходов раскрыта сущность воли как интегративного личностного образования, формирующегося в деятельности и социальном взаимодействии. Представлены результаты педагогического эксперимента, проведённого в 2024 году на базе общеобразовательной школы №7 Джаркурганского района Сурхандарьинской области с участием учащихся 4-х классов. Экспериментальная работа была направлена на внедрение специально организованных средств и методов физического воспитания, способствующих развитию настойчивости, целеустремлённости, самоконтроля и дисциплинированности. Полученные результаты свидетельствуют о положительной динамике формирования волевых качеств у учащихся экспериментальной группы и подтверждают эффективность целенаправленного использования физического воспитания как педагогического средства развития личности младших школьников.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *волевые качества, воля, младшие школьники, физическое воспитание, саморегуляция, произвольное поведение, педагогический эксперимент, урок физической культуры, личностное развитие, мотивация деятельности, психолого-педагогические механизмы, начальное образование.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING VOLITIONAL QUALITIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION

Abstract: This article examines the psychological and pedagogical mechanisms for developing volitional qualities in primary school students through physical education. The relevance of this study lies in the need to develop young schoolchildren's ability to self-regulate behavior, focus their activities, and overcome difficulties in the educational process. Based on an analysis of domestic and international scientific approaches, the essence of willpower is revealed as an integrative personal development that develops through activity and social interaction. The article presents the results of a pedagogical experiment conducted in 2024 at Comprehensive School No. 7 in the Jarkurgan District of the Surkhandarya Region, involving fourth-grade students. The experimental study aimed to introduce specially organized physical education tools and methods to foster persistence, determination, self-control, and discipline. The results demonstrate positive dynamics in the development of willpower in students in the experimental group and confirm the effectiveness of targeted physical education as a pedagogical tool for developing the personality of primary school students.

Keywords: *willpower, willpower, primary school students, physical education, self-regulation, voluntary behavior, pedagogical experiment, physical education lesson, personal development, motivation for activity, psychological and pedagogical mechanisms, primary education.*

KIRISH. Ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish sharoitida o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'quv faoliyatini amalga oshirish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash hamda xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsiy sifatlarni shakllantirish muammosi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3; 5]. Bunday sifatlar orasida shaxsning irodaviy sohasi yetakchi o'rin egallab, u bolaning o'z harakatlarini ongli ravishda boshqarish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va belgilangan maqsadlarga erishish qobiliyatini belgilaydi.

Boshlang'ich maktab yoshi psixologik-pedagogik fanlarda xulq-atvor ixtiyoriyligining shakllanishi hamda o'zini nazorat qilishning asosiy mexanizmlari rivojlanadigan senzitiv davr sifatida e'tirof etiladi [1; 2; 4]. Aynan ushbu yosh bosqichida impulsiv faoliyat shakllaridan ongli boshqariladigan faoliyatga o'tish bilan bog'liq regulyativ funksiyalar jadal rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda irodaviy sifatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi diqqat barqarorligining pastligi, qoidalarga rioya qilishdagi qiyinchiliklar, tez charchash hamda harakatlarning yetarli darajada maqsadga yo'naltirilmaganligida namoyon bo'ladi. Bu holat ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalarni izlash zaruratini yuzaga keltiradi [3; 6].

Mahalliy psixologiya fanida iroda bolaning ijtimoiy faoliyati jarayonida shakllanuvchi integrativ psixik tuzilma sifatida talqin etiladi. L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko'ra, ixtiyoriy xulq-atvor tashqi boshqaruv shakllarining, dastlab kattalar tomonidan tashkil etilgan faoliyat orqali ichkilashtirilishi (interiorizatsiya) natijasida rivojlanadi [7]. A.N. Leontyev irodaviy harakatlarning faoliyatga xos tabiatini ta'kidlab, ularni faoliyat maqsadi va motivlarini anglash bilan bog'laydi [8]. B.G. Ananyev va D.B. Elkonin tadqiqotlari esa irodaviy xulq-atvorning shakllanishi bolaning qoidalarga rioya qilish va qiyinchiliklarni yengib o'tishni talab etuvchi tashkil etilgan faoliyat turlariga jalb etilishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [9; 10].

Xorijiy tadqiqotchilar ham o'z-o'zini boshqarish rivojlanishini shaxs kamolotining muhim omili sifatida baholaydilar. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, irodaviy xulq-atvor shakllari kuzatish, taqlid qilish hamda muvaffaqiyatli harakat modellarini mustahkamlash jarayonida rivojlanadi. O'zini nazorat qilish va xulq-atvor barqarorligining erta rivojlanishi o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati hamda ijtimoiy kompetentligining muhim prediktori sifatida qaraladi.

Irodaviy sifatlarni shakllantirishda pedagogik vositalar orasida jismoniy tarbiya alohida o'rin tutadi. Jismoniy tarbiya darslari o'quvchi qoidalarga rioya qilish, hissiyotlarini boshqarish, boshqa o'quvchilar bilan harakatlarni muvofiqlashtirish hamda jismoniy va psixologik qiyinchiliklarni yengib o'tishga majbur bo'ladigan noyob pedagogik sharoitlarni yaratadi. Harakat faoliyati qat'iyatlilik, sabr-toqat, bardoshlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishini talab etib, uni irodaviy boshqaruvni rivojlantirishning samarali vositasiga aylantiradi.

Nazariy tadqiqotlar soni yetarli bo'lishiga qaramay, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya vositalari orqali irodaviy sifatlarni maqsadli shakllantirish muammosi real ta'lim jarayoni sharoitida qo'shimcha eksperimental asoslashni talab etadi.

Shu munosabat bilan 2024-yilda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 7-son umumta'lim maktabi bazasida 4-sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirishda maxsus tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan pedagogik tajriba tadqiqoti o'tkazildi.

Tadqiqot maqsadi - jismoniy tarbiya vositalari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ularni eksperimental jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Shaxsning irodaviy sifatlarini shakllantirish muammosi psixologik-pedagogik tadqi-qotlarda markaziy o'rinlardan birini egallaydi, chunki iroda inson xulq-atvori va faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda iroda shaxsning integrativ tuzilmasi sifatida talqin etilib, u harakatlarni ongli boshqarish, to'siqlarni yengib o'tish hamda belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi [1; 3].

Mahalliy psixologik maktabda iroda muammosini o'rganishning nazariy asoslari L.S. Vigotskiy tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo'lib, u ixtiyoriy xulq-atvor rivojlanishini ijtimoiy faoliyat shakllarining interiorizatsiya jarayoni bilan bog'lagan. Uning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko'ra, irodaviy boshqaruv dastlab tashqi xarakterga ega bo'lib, kattalar ishtirokida amalga oshiriladi, keyinchalik esa asta-sekin bolaning ichki o'zini nazorat qilish mexanizmiga aylanadi [7].

A.N. Leontyev irodani faoliyatga asoslangan yondashuv doirasida ko'rib chiqib, irodaviy harakat shaxs faoliyatining maqsadi anglangan hamda uni yo'naltiruvchi motiv mavjud bo'lgan sharoitda yuzaga kelishini ta'kidlagan. Uning fikricha, ixtiyoriylik shaxs shakllanganligining muhim ko'rsatkichi bo'lib, u vazifaga muvofiq harakat qilish qobiliyatida, ya'ni vaziyatga bog'liq impulsiv ta'sirlarga emas, balki ongli

maqsadga asoslangan faoliyatda namoyon bo'ladi [8].

B.G. Ananyev va D.B. Elkonin tadqiqotlari kichik maktab yoshi shaxsning regulyativ funksiyalari rivojlanishida muhim bosqich ekanligini ko'rsatadi. Mazkur davrda ijtimoiy me'yorlarni faol o'zlashtirish, o'zini nazorat qilish va mas'uliyat hissi shakllanishi kuzatiladi hamda o'quv faoliyati shaxs rivojlanishining yetakchi omiliga aylanadi [9; 10].

Tajriba tadqiqoti 2024-yilda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 7-son umumta'lim maktabi bazasida amalga oshirildi. Tadqi-qotda 9-10 yoshdagi 4-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar.

Umumiy tanlanma 48 nafar o'quvchidan iborat bo'lib, ular ikki guruhga taqsimlandi:

— tajriba guruhi - 22 nafar o'quvchi;

— nazorat guruhi - 24 nafar o'quvchi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

— pedagogik kuzatuv;

— psixologik-pedagogik test sinovlari;

— o'quvchilar xulq-atvorini ekspert baholash;

— nazorat va tajriba guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish;

— ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash usullari (o'rtacha ko'rsatkichlarni aniqlash hamda % o'sishni hisoblash).

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ekspe-rimental tadqiqotning maqsadi 4-sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllan-tirishda maxsus tashkil etilgan jismoniy tarbiya vositalarining samaradorligini aniqlashdan iborat edi. Baholash quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshirildi:

- maqsadga intiluvchanlik;
- qat'iyatlilik (matonatlilik);
- o'zini nazorat qilish;
- intizomlilik;
- qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyati.


O'ZGARISHLAR DINAMIKASINING QIYO-SIY TAHLILI. Natijalarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi hisoblab chiqildi.

3-jadval.

Irodaviy sifatlar o'zgarishining dinamikasi (%)

Daraja	Tajriba guruhi (o'sish)	Nazorat guruhi (o'sish)
Yuqori daraja	+33,4	+7,0
O'rta daraja	−8,4	+2,3
Past daraja	−25,0	−9,3

Olingan natijalar jismoniy tarbiyaning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining irodaviy sohasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega pedagogik vosita ekanligi haqidagi gipotezani tasdiqlaydi.



1-rasm. Irodaviy sifatlar o'zgarishining qiyosiy dinamikasi

Ijobiy o'sish dinamikasi bir qator psixologik-pedagogik mexanizmlar ta'siri bilan izohlanadi:

1.Regulyativ mexanizm - harakatli topshiriqlarni bajarish jarayonida qoidalarga rioya qilish va xulq-atvorni nazorat qilish zarurati o'quvchilarda o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

2.Motivatsion mexanizm - musobaqa elementlarining qo'llanilishi o'quvchilarning ichki qiziqishi va faol ishtirokini kuchaytirdi.

3.Faoliyatga oid mexanizm - mashqlarning muntazam takrorlanishi qat'iyatlilik va davomiy harakat qilish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qildi.

4.Ijtimoiy mexanizm - guruhli faoliyat jarayonida mas'uliyat hissi hamda o'zini intizomli tutish sifatlari rivojlandi.

5.Emotsional-irodaviy mexanizm - jismoniy qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayoni bardoshlilik va maqsadga intiluvchanlik sifatlarining rivojlanishiga yordam berdi.

Nazorat guruhida mashg'ulotlar an'anaviy dastur asosida olib borilgan bo'lsa, tajriba metodikasi irodaviy sa'y-harakatlarni maqsadli pedagogik rag'batlantirishni o'z ichiga olgani sababli unda ancha yaqqol ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Olingan ma'lumotlar shaxs rivojlanishining madaniy-tarixiy nazariyasi qoidalari bilan uyg'un bo'lib, unga ko'ra irodaviy boshqaruv faoliyat va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi. Jismoniy tarbiya darslari harakat faoliyati orqali ixtiyoriy xulq-atvorni tabiiy ravishda shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vaziyatlarni yaratadi, bu esa ularni o'quvchi shaxsini rivojlantirishning samarali ta'lim muhiti sifatida baholash imkonini beradi.

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya vositalari orqali irodaviy sifatlarni shakllantirish samaradorligini nazariy jihatdan asoslash va eksperimental ravishda tasdiqlash imkonini berdi. Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili iroda xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish, faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi hamda qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatini ta'minlovchi integrativ shaxsiy tuzilma ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, uning rivojlanishi ijtimoiy shartlangan va faoliyat jarayoniga bog'liq xarakterga ega ekanligi aniqlandi.

2024-yilda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 7-son umumta'lim maktabi bazasida 4-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari maxsus tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslarining o'quvchilarning irodaviy sohasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida qoidalarga rioya qilishni, qat'iyatlilikni, o'zini nazorat qilishni hamda mas'uliyatni talab etuvchi harakatli topshiriqlarni muntazam qo'llash irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Nazorat va tajriba guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili tajriba guruhida yaqqol ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilganligini ko'rsatdi. Bu o'zgarishlar irodaviy sifatlari yuqori darajada rivojlangan o'quvchilar sonining ortishi hamda ularning shakllanganlik darajasi past bo'lgan o'quvchilar ulushining kamayishida namoyon bo'ldi. Mazkur holat kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsini rivojlantirishda jismoniy tarbiya vositalaridan maqsadli foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlardan boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan ta'lim jarayonida o'quvchilarning irodaviy sifatlarini maqsadli rivojlantirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Абдуллаев, Я. М., & Турдимуродов, Д. Й. (2020). Ўсмир ёшдаги ўқувчиларда иродавий сифатларни жисмоний тарбия воситалари орқали ривожлантириш. Современное образование (Узбекистан), (9 (94)), 56-62.

2.Турдимуродов, Д. Й. (2021). Спорт ўйинлари билан шуғулланиш жараѐнида ўқувчиларда иродавий сифатларнинг шаклланиш хусусиятлари. Актуальные научные исследования в современном мире, 3(9), 77.

3.Турдимуродов, Д. Й. (2021). Ўқувчиларнинг иродавий сифатларини шакллантиришда жисмоний тарбия воситаларининг имкониятлари. Инновации в педагогике и психологии, 4(7).

4.Turdimuratov, D. (2025). Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarini shakllantirish. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социальногуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5, 249-255. DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N41

5.Turdimuratov Dilmurad, D. (2026). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlari sport faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi xulq-atvor reaksiyalarining rivojlanishiga ta'siri. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6(4), 361–367. https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N51

6.Turdimurodov, D. (2023). Yuqori sinf o'quvchilarida qat'iyatlilik sifatini jismoniy tarbiya darslarida tarbiyalash. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(3), 218–223. https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N29

7.Выготский Л.С. Психология развития человека. - Москва: Смысл, 2005. - 1136 с.

8.Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Смысл, 2005. - 352 с.

9.Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. - Москва: Просвещение, 2007. - 384 с.

10.Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - Санкт-Петербург: Питер, 2010. - 288 с.